

ADABIYOT – MA’NAVIYAT O‘CHOG‘I

Akramxonova Mexribonu Saidaxmadxon qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot asosiy tushuncha bo‘lib, uning shaxs ma’naviyati, odobi, axloqining shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan. Bundan tashqari, badiiy asarlarimizning bolalar ongida ezgulik, olijanoblik, ota-onaga bo‘lgan hurmat, vatanparvarlik kabi tushunchalarning paydo bo‘lishida salmoqli o‘ringa ega ekanligi ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyot, badiiy adabiyot, so‘z san’ati, adib, shoir, allomalar, fikr, diyonatlilik.

Аннотация: В этой статье литература представляет собой базовое понятие, ее значение и важность, в формировании духовности, нравственности и морали человека. Кроме этого даны сведения о влиянии художественных произведений на сознание и гуманизм ребенка, благородство, великодушие, уважение к родителям патриотизм.

Ключевые слова: литература, художественная литература, искусство слова, писатель, поэт, ученые, мысль, религиозность.

Abstract: In this article, literature is a basic concept, and it is important for developing of children’s morals, spiritual life and in the formation of morality. It also states that our artistic works have a considerable place in the minds of children such as goodness, nobility, respect for parents, patriotism.

Key words: literature, fiction, word art, writer, poet, scholars, thought, religiosity.

Adabiyot atamasini eshitishimiz bilan tafakkurimizda she’rlar, romanlar, hikoyalar, xalq og‘izaki ijodidan bo‘lmish dostonlar, umuman olganda, biror-bir adib yoki shoir hayoti va ijodi, uning yozgan asarlari gavdalanadi. Bu tushunchalarning ongimizda paydo bo‘lishi tabiiy hol, albatta. Chunki maktab davrlarimizdan boshlab adabiyot fanini haqida tushunchaga ega bo‘lamiz va bu so‘zning qanday ma’no anglatishi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lganmiz. O‘zida nodir va bebaho ma’lumotlarni jamlagan adabiyot so‘zining tub ma’nosida esa odob-axloq tushunchasi yotadi. Xususan, bobokalonlarimizdan biri bo‘lmish Abdulhamid Cho‘lponning “Adabiyot nadir?” maqolasida adabiyot haqida shunday deyiladi: “Adabiyot har bir millatning hisli ko‘ngul tarixining eng qorong‘u xonalarida maishat (tirikchilik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan fayzli til birla taqdir etula olmaydirg‘an bir guldir. Ushbu yashadigimiz muhit doirasida aning to‘lquni odamning har xil maishatiga qarab o‘zgaradir”. [1]

Bir qarashda yuqoridagi fikrlarni anglash qiyindek tuyiladi. Lekin bunday yurakdan aytilgan go‘zal fikrlarni berilib o‘qisangiz uning asl mazmun-mohiyatini anglab olishingiz mumkin. Cho‘lponning fikrlarini qisqacha tahlil qiladigan bo‘lsak, bunda adabiyot inson yuragining tubidagi zulmatga qanday ta’sir etishi haqida aytib o‘tilgan. Ya’ni biz bilamizki, har bir damning qalbida ezgulik va yovuzlik, yorug‘lik va zulmat kabi hislatlar mujassam bo‘ladi. Adabiyot esa ana shu tublikdagi bir gula qiyoslangan. Shulardan biri bo‘lgan zulmat adabiyotni ikki xil tahlil qila olishi, ya’ni u xohlasa ezgulik, xohlasa yovuzlik sari o‘zgartirishi nazarda tutilgan.

Ilmiy tarafdin kelib chiqilganda adabiyot so‘zining lug‘aviy ma’nosi arabcha “adab” so‘zining ko‘pligi hisoblanib, fan va amaliyotning biror sohasidagi yutuqlarini umumlashtiruvchi asar majmui, voqelikni so‘z yordamida obrazlar orqali aks ettiradi deb ta’riflanadi. Adabiyot yozuv paydo bo‘lishidan avval og‘izaki tarzda bo‘lgan. Ya’ni xalq og‘izaki ijodlari: qabilalarning qo‘shiq-lari, keyinchalik afsonalar, dostonlar ko‘rinishida bo‘gan. Yozuv paydo bo‘lgandan keyin u yozma shaklga o‘tgan. Adabiyot so‘z orqali insonning his tuyg‘ularini keng va chuqur aks ettirish imkoniyatiga ega,

shuning uchun ham u san’atning eng ommaviy turi hisoblanadi. Ya’ni adabiyot – so‘z san’ati.

Badiiy adabiyotning yetakchi uch turi mavjud. Bular: epos, lirika va drama. Epos – voqelikning o‘zini in’ikos etadi, lirikada esa insonning voqelikdan olgan taassurotlari qo‘shib tasvirlanadi. Sharq qadimdan she’riyat o‘lkasi bo‘lgan. Shu boisdan sharqiy badiiy adabiyotda ayniqsa, lirika keng rivojlangan. Drama hayotni harakatda ifodalab, muallif nutqisiz aks ettiradi. Adabiyotda voqelikni aks ettirish tamoyiliga ko‘ra, adibning ijodiy usuli paydo bo‘ladi. Adabiyotning badiiylilik mezoni uning g‘oyaviy-badiiy jihatdan mukammal bo‘lishini taqazo qiladi. Bu hol asar mavzusining dolzarbligi, ifoda etadigan g‘oyasining to‘g‘riligi, tasvir haqiqatining chuqurligi, badiiy shakl tarkibiy qismlarining mukammalligidan yuzaga keladi. Har bir adabiyot milliydir. Shunga ko‘ra har bir xalqning tarixiy hayotidagi va ruhiyatidagi xususiyatlar adabiyotning milliyliги mazmunini tashkil etadi va o‘ziga xos milliy shaklni yuzaga keltiradi. Milliy shaklning yuzaga kelishida adabiyot tomonidan uzoq davr mobaynida yig‘ilgan tajriba va an’ananing ham ahamiyati katta. Xalq hayotidagi yangi davr esa adabiyotni yangi yuqoriroq bosqichga ko‘taradi, uning mazmuni va shaklini ham yangilaydi, boyitadi.[2]

“Adabiyot – fikr ommasi, qalb hislari bilan doimo sayqallanadigan, to‘xtasni bilmaydigan, borgan sari hamisha nurlanishi, chaqnashi oshib boradigan bir soha...

...Adabiyotimizning tasvir obyekti – xalqimiz turmushi. U o‘z taraqqiyotida xalq hayotini, kurashini, orzu-armonlarini, his-tuyg‘ularini, fikr-hayollarni yangi jamiyat qurish yo‘lidagi faoliyatini badiiy aks ettirib rivojlantirdi, benihoya yutuqlarni qo‘lga kiritdi...

Adabiy asarlar turmushni jonli ko‘rsatib, odamlarning fikr va tuyg‘ulariga kuchli ta’sir qiladi. Badiiy chuqur, fikr-his jihatidan to‘la adabiy asarlar o‘quvchini uzoq vaqt bog‘lab, asir qilib oladi. Adabiyot turmushini abstrakt (mavhum) tushuntirmay, konkret (aniq) badiiy umumlashtirib, jonli anglatadi. Adabiy asarlar ila ma’lum bir yo‘nalishda ommani tarbiya qilish, madaniy saviyasini, zavqini ko‘rsatish mumkin. Davrni to‘lqinlantirgan ulug‘ ideyalar, vazifalar, millionlarning hayotida ko‘rilgan

o‘zgarishlar san’at asarlarida mujassamlanishi kerak. Adabiyot xalqning jon-tani bo‘lgan bir ishdir, shuning uchun bizning bu sohadagi har bir muvaffaqiyatimizni, maydonga chiqqan har bir qimmatli asrani xalq o‘z g‘alabasi, deb biladi.”.[3]

Adabiyot shunday narsaki, kerak bo‘lsa u bizga o‘tmishimizni ko‘rsatib bera oladigan oynadir. Misol uchun xalq og‘izaki ijodidan bo‘lgan dostonlarni to‘qima va afsona, ulardagi voqealar real hayotda sodir bo‘lmagan deb aytishimiz mumkin. Lekin ana shu voqealar, ularning rivoji, yoshlarga o‘rnak bo‘la oladigan va ularning dunyoqarashlarini yaxshilik sari yo‘naltirish uchun xizmat qiluvchi voqealar, Vatanparvarlik ruhini o‘zida mujassam etgan qahramonlarning mardonavor kurashlari bugungi kun yoshlari uchun ham katta maktab vazifasini o‘tay oladi. Asar yozayotgan yozuvchi asosiy o‘rinda ana shu yozayotgan asarning qahramonlari qanday xarakterga ega ekanligini, uning hayotdagi odamlar ruhiyatiga qanday ta’sir etishi haqida fikr yuritadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanini bilmaydigan o‘zbek kitobxon bo‘lmasa kerak meningcha. Ushbu asarning o‘ziga xos jihati shundaki, unda XX asrning ijtimoiy tabaqalari hayoti mukammal yoritib berilgan. Asarda o‘zbek xalqining milliy qadriyatlaridan bo‘lgan ota-bola munosabatlari shunday yoritib berilganki, uni o‘qigan kitobxon o‘ziga juda katta ma’naviy ozuqa oladi. Xalqimizda azaldan bir naql bor: “Otang o‘tirgan uyning tomiga chiqma”. Ushbu asarda Otabekning o‘z otasi Yusufbek Xoji bilan suhbatlashganda, otasining yuziga tik boqa olmasligi, otaning esa o‘g‘liga sizlab murojat etishi ham bizlarning qanday bir ma’naviyati yuksak xalq ekanligimizni namoyon etib bergan. Bu esa, albatta, yoshlarimizning tarbiyasida, axloq-odobi, ota va farzand o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yaxshi tarafga o‘zgarishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu ham adabiyotning jamiyatdagi, uning porloq kelajagi, yoshlar, qolaversa, kattalar odobida ham muhim burilish yasay olishidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- [1] – “Adabiyot nadir?” – “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil, 4-iyun sonida bosilgan.
- [2] – O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent 2000-yil.
- [3] – Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek fikrlari.
- [4] – I.A.Karimov “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” asari.

